“InnoWeek.Uz” da yangi ishlanmalar namoyish etilmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan Innovatsion g‘oyalar haftaligi “InnoWeek.Uz” doirasida o‘tkazilayotgan ko‘rgazmada O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti o‘zining tibbiyot, parrandachilik uchun ishlanmalari bilan ishtirok etmoqda.

Shuningdek, ko‘rgazmada qo‘shimcha ravishda Institut olimlarining tibbiy laboratoriyalar uchun yangi ishlanmalari - B va C gepatitini aniqlashda qo‘llaniladigan PSR diagnostikumlar ham namoyish etilmoqda. Ushbu ishlanmalar tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgandan so‘ng davolash va diagnostika muassasalarida qo‘llanilishi mumkin.